



MUSIQA

**FAOLIYAT
ISHLANMALARI**

YAKIN DAVRI

MANUNA

O'RTA GURUH

O'RTA GURUH BOLALARI BILAN MUSIQA FAOLIYATLARINI O'TKAZISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

O'rta guruh bolalarining atrofdagi hodisalarga qiziqishi ancha ortadi, ular musiqa rahbariga turli savollar bera boshlaydilar. Bu yoshda nutq rivojlanishida jiddiy o'zgarishlar

yuz beradi: bolalarning so'z boyligi ortadi, ular tevarak-atrof haqida fikr yurita oladigan

bo'ladilar, badiiy asarlarga, musiqa — ritmga ta'sirchanlik kuchayadi.

To'rt yoshli bolalar musiqadan emotsional ta'sirlanadilar. Ular musiqadagi yorqin kayfiyatni (musiqaninig sho'x yoki osoyishta ekanini) oson farqlaydilar. Tanish qo'shiq va

kuylarni bilib oladilar, ularning nomlarini aytadilar. Bolalar tovushlilar balandligini, tembrini farqlay oladilar, musiqa rahbarining ovozigga yaxshi moslashadilar, cho'zib kuylay boshlaydilar.

Ular yurish, yugurish ritmini, yorqin dinamik va temp o'zgarishlarini, asar (kuy)ning

2 qismli shaklini harakat bilan ifodalay oladilar.

O'rta guruhlarda musiqa faoliyatlarini o'tkazishdan maqsad va ko'zda tutilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- turli kayfiyatdagi musiqa asarlariga qiziqishni uyg'otish;
 - musiqa yangraganda undagi o'zgarishlarni his etish;
 - tovushlar baland-pastligini, 2—3 ta bolalar cholg'u asboblarining tembrlarini farqlash;
 - yurish-yugurishga mos harakatni ifodalash;
 - tanish qo'shiq va kuylarni tinglab farqlash qobiliyati va malakalarini tarbiyalash;
 - qo'shiq kuylashda kuychan (tovushlarni mayin cho'zish), sodda oddiy ritmdagi qo'shiqlarni sof intonatsiyada kuylash, jamoada kuylash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish;
 - raqs va obrazli harakatlarni o'rganishda musiqa va harakat birligini rivojlantirish.
- To'rt yoshli bolalarda musiqiy ijodkorlikning dastlabki kurtaklari namoyon bo'ladi. Ular turli obrazlarni yangicha talqin eta boshlaydilar, ijodiy yutuqlaridan zavqlanadilar, mustaqil fikr yuritishga o'rganadilar.

O'rta guruh bolalarining diqqat-e'tibori oldingi guruhga qaraganda birmuncha turg'un,

nutqi, xotirasi, musiqani idrok etish qobiliyati ancha rivojlangan bo'ladi. Ular raqsbob

kuylarni jonli ijro etadilar. Bu yoshda musiqaning mazmuni va xarakterini bilishga qiziqish paydo bo'ladi. Musiqa asarlari ham bolalar xotirasida ancha vaqt saqlanib qoladi, ular o'z taassurotlarini hikoya qilib berishga harakat qiladilar. Qo'shiqlarni musiqiy harakatlarni aniq bajarib ijro etadilar. Bolalar cholg'u asboblarida yengil kuylarga jo'r bo'lish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Musiqa faoliyatlarida faol qatnashib, berilgan topshiriqlarni kichik guruhga qaraganda aniq bajara oladilar.

“Tasdiqlayman”

_____ - sonli MTT
direktori _____

2025-YIL YOZ DAVRIDA RAQSGURUHLARGA
Musiqi rahbari _____ ning
ISH REJASI

№	Oy mavzusi	Hafta mavzusi	O'tish joyi	Hafta mavzusi	Vahti	Izoh
1.	Iyun Baxtli bolalik	1-hafta Baxtli bolalik	Guruh xonasida	“Hamma bola baxtli” qo'shiqini tinglash		
				“Baxtli bolalik” o'sha raqsi		
		2-hafta Gullarga mehr	Guruh xonasida	“Guldor kapala” raqsi		
				“Gul yaxshi –lola yaxshi” qo'shiqini yozish		
		3-hafta Bog'cha bo'ylab sayr	Yozgi ayvonchada	“Xo'roz o'yini” ritmik harakatlar		
				“Yurtim chiroyli” raqsi		
		4-hafta Ertak qaxramonlari mehmonda	Guruh xonasida	“Oxanglarda ertaklar” musiqiy ta'limiy o'yin		
				Didaktik o'yinlar		
	Iyul Quvnoq yoz	1-hafta Yozgi o'yinlar	Guruh xonasida	“Quyosh bilan suhbat” kuyini tinglash		
				“Sallanno” Raqsi		

2.		2-hafta Quvnoq estafetalar	Guruh xonasida Yozgi ayvonchada	“Barkamol avlod” qo‘shig‘iga raqs		
				“Musika ostida sport harakatlarini bajarish”		
		3-hafta Ertaklar ijodiy roxat	Guruh xonasida	“Qadim turon” qo‘shig‘ini yod olish		
				“Qadim turon” qo‘shig‘ini musiqada kuylash.		
		4-hafta Suv bilan o‘yin	Yozgi ayvonchada Guruh xonasida	“Suv bilan o‘yin” musiqiy talimiy o‘yin		
				“Qizlarjon qo‘shig‘iga raqs.”		
3.	Avgust Quvnoq va sog‘lom bolalar	1-hafta Savzavot mevalar	Guruh xonasida	“Shaftoliga savolim” qo‘shig‘ini yod olish.		
			Guruh xonasida	“Shaftoliga savolim” qo‘shig‘ini musiqada kuylash		
		2-hafta Kattalarga quloq sol	Guruh xonasida	“Qo‘shimcha opam” qo‘shig‘ini yod olish .		
			Guruh xonasida	“Qo‘shimcha opam” qo‘shig‘ini musiqada kuylash.		
		3-hafta O‘ynlar shaharchasi	Guruh xonasida	“Uyimizning tikon” qo‘shig‘ini yod olish.		
			Guruh xonasida	“Uyimizning tikon” qo‘shig‘ini musiqada kuylash.		
		4-hafta Zavqli yoz	Guruh xonasida	“Yozgi savolim” qo‘shig‘ini yod olish.		
			Guruh xonasida	“O‘ynaymiz musika bilan ritmik harakatlar.		

Iyun oyi

Oy mavzusi: Baxtli bolalik

1-Hafta mavzusi: Baxtli bolalik

Mavzu: "Bolalar qanday bola yasangan" qo'shig'ini tinglash. "Baxtli bolalik" qo'shig'iga raqs

O'tish: O'qish, tushunish, o'rganish

Mavzu:

ta'lim: "Bolalar qanday bola yasangan" qo'shig'ini tinglashadi. "Baxtli bolalik" raqsini o'rgatish, harakatlarni o'qitish, qadamlarni o'rganish, musiqa tinglashda fikrlash, musiqa asboblari ovozlari farqlash, o'qitish, kuylash, musiqa tinglash, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, musiqa savodini o'rganish, musiqa cholg'u asboblari bilan jo'r bo'lish, qo'shiq matni haqidagi fikrlarni bolalar uchun qayta yaratish, raqs va o'yinlarda aqliy va estetik qobiliyatini, irodasini, ijodkorligini rivojlantirish.

tarbiyaviy: kichik bolalar uchun qadimgi o'zbek xalq raqsiga mehr uyg'otish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalab, voyaga yetkazish. O'qitish jarayonida bolalarda milliy musiqa ohanglari yordamida zaruriy bilim va ko'nikma o'rganish, bolalar musiqa bo'lgan qiziqishini oshirish, atrof olam bilan tanishtirish, barmoq harakatlari harakatlarni bajarish, shovqinli va musiqiy asboblari bilan tanishtirish, musiqa asboblari bilan o'yinchoqlarni avaylab asrash hissiy tarbiyalash.

rivojlantiruvchi: bolalarni musiqiy faoliyatini o'rganish, idroki va hissiyotlarini tarbiyalash, kuy va qo'shiqlarni tinglashga odatlantirish, bolalarni musiqa bo'lgan qiziqishini oshirish, musiqa faoliyatini rivojlantirish.

Kerakli jihoz: mavzuga oid ko'rgazmalar, musiqa asboblari, shovqinli va musiqiy asboblari.

Qo'llaniladigan usul: ko'rsatish, bilimlarni o'rganish, o'qitish, o'rganish, savol-javob, she'riy uslub, ijodkorlik, rag'batlantirish, qisqa hikoya, sahna ko'rinishi.

Faoliyatni borishi:

Musiqa rahbari– Bolajonlar men xozir sizlarga kuy qo'yib beraman sizlar shu kuyda qanday osbop yashiringanini topasiz (yozma yoki yorriy kuy yangraydi)

Musiqa raxbari – bolalar qanday asboblar yashiringan?

Bolalar – doira, karnay, surnay rubob asboblari yashiringan


bolalar dukondan asboblarni topib tarif berishadi.

Rubob-	Qanday sozlab olsangiz	Meni changdan avaylab
	Men o'shanday kuylayman	Baxmallarga o'raysiz
	Shu tufayli xurmatim	Gapingizga kirmasam
	Joyida deb o'ylayman	Qulog'imdan buraysiz
	Tingir-ting, tingir-ting	Tingir-ting, tingir-ting



Doira –	Yum –yumaloq qosqonim	Menga tushsa shapaloq
	Baka –baka bum	Baka –baka bum
	Buynimda mis Marjonim	Siz otasiz shotaloq
	Baka –baka bum	Baka – baka bum

HAMMA BOLA YASANGAN



Musiqa rahbari – Bolalarni musiqiy asbob urib chalinadimi, yoi puflab

Bolalar – Urib chalinadi.

Karnay – Tomga chiqib baqiraman, seni to'ygacha ko'zimni
Vax vaxa xey Vax vaxa xey
Seni to'ygacha ko'zimni Vax vaxa xey
Vax vaxa xey Vax vaxa xey

Musiqa rahbari bolalarga “Hamma bola yasangan” qo'shig'ini aytib berib bolalardan so'raydi – Qo'shiq yoqdimi?

Endi kim, musiqa faoliyatida “Hamma bola yasangan”ni aytib berishni xohlaydi, marhamat eshitamiz. Bolalar “Hamma bola yasangan”ni yod olishadi. “Hamma bola yasangan”ni kuylashga harakat qilib o'zlari bilgancha galma-galdan aytishadi.

Faoliyat oxirida musiqa rahbari qo'shiq aytgan bolalarni maqtaydi.

Katta bo'lsanglar mohir qo'shiqchi bo'lasiz - deb yaxshi tilaklar bildiradi.

So'ng musiqa rahbari «Baxtli bolalik» qo'shig'ini bolalar bilan birga kuylashadi. “Baxtli bolalik” qo'shig'ga raqsga tushadilar

Faoliyatni yakunlash: faoliyatda aktiv qatnashgan bolalarni shirin so'zlar bilan rag'batlantirib, faoliyatni mustaxkamlab yakunlaymiz.

Iyun oyi

Oy mavzusi: Baxtli bolalik

2-Hafta mavzusi: Gullarga mehr

Mavzu: “Guldor kapalak” raqsi. “Gul yaxshi –lola yaxshi” qo‘shig‘ini yod olish

O‘tish ishlari: Musiqa xonasida

Maqsad:

talablarini “Guldor kapalak” raqsini o‘rgatish, “Gul yaxshi –lola yaxshi” qo‘shig‘ini yod oldirish, musiqa asboblari bilan foydalanish, musiqa tinglashda fikrlash, musiqa asboblari ovozlari farqlash, musiqa asboblari qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, musiqa asboblari oshirish, bolalar musiqa cholg‘u asboblari bilan jo‘r bo‘lish, qo‘shiq matni haqidagi fikrlarni oshirish, raqs va o‘yinlarda aqliy va estetik qobiliyatini, irodasini, ijodkorligini oshirish.

tarbiyaviy: Bolalarni qalbiy afosotga mehr uyg‘otish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalab, voyaga yetkazish, faoliyat rayonida bolalarda milliy musiqa ohanglari yordamida zaruriy bilim va ko‘nikmalarni oshirish, musiqa bo‘lgan qiziqishini oshirish, atrof olam bilan tanishtirish, barmog‘i bilan raqs harakatlarni bajarish, shovqinli va musiqiy asboblari bilan tanishtirish, musiqa asboblari va o‘yinchoqlarni avaylab asrash hissiyatini tarbiyalash.

rivojlantiruvchi: bolalarni musiqa asboblari bilan tanishtirish, idroki va hissiyotlarini tarbiyalash, kuy va qo‘shiqlarni tinglashga odatlanish, qo‘shiq aytishga o‘rgatish, musiqiy faoliyatini rivojlantirish.

Kerakli jihoz: mavzuga oid ko‘rgazmalar, musiqa asboblari, shovqinli musiqa asboblari.

Qo‘llaniladigan usul: ko‘rsatish, bilimlarni qaytaritish, tanishtirish, savol-javob, she‘riy uslub, ijodkorlik, rag‘batlantirish, qisqa hikoya, tanishtirish.

Faoliyatni borishi:

Bolalar tantanali “ Marsh “ musiqa sadolari ostida qarshilik bilan keladilar va yarim doira hosil qiladilar.

Bola :

Tashrif buyuribsiz bizning bog‘chaga,
Mamnun bo‘ldik biz bolalar ham.
Bahra oling bizning bilimimizdan,

Hamma: Xush kelibsiz aziz ustozlar!

Bolalar: (musiqa ostida) Assa-lo-mu-alay-kum, hur-mat-li us-toz,

Musiqa rahbari : (musiqa ostida) Va-alay-kum as-sa-lom, aziz bo-la-lar.

Tarbiyachi: Musiqa xonasiga xush kelibsiz!

Musiqali ritmik harakat: Marsh, yugurish, sakrash, salmoqli qadam, polka kuyiga moslab qadam tashlash, deysinib yurish, nafas olish mashqlari va yana marsh musiqasi bilan yakunlab o‘z joylarini egallaydilar.

Musiqa rahbari : Qani bolalar, aytinglar-chi, musiqa olami bizga nimani o‘rgatadi ?

Bola:

Faoliyatlar ichida, musiqa quvnoq fandır.
Ohanglar olamining, barcha sirlari jamdir.
Bu faoliyat bizlarga o‘yin, raqs, qo‘shiqlar ,
Sirlarin o‘rgatadi, nazariy bilimlarni,
Jamlashni o‘rgatadi.

Musiqa rahbari :

Raxmat sizga bolalar, dono zukko lolalar.
Musiqada bolalar etti nota mavjuddir.
Ettita notalardan quvnoq kuylar taralur.
Qani notalar chiqing o‘zni bir tanishtiring.

(Musiqa sadolari ostida notalarbirin-ketin chiqadilar)

“ DO ” notasi : Biz etti aka- uka yashaymiz birgalikda.

Tovushqator uyimiz do, re , mi, fa,
Sol, lya , sidur nomimiz!
Dorboz, doira, donlarda, uchrayman men so‘zlarda.
Menda boshlanur ohang, “ do “man doim hamohang.
Necha asrdan buyon , biz do‘stimiz insonning,
Qutlamoq uchun keldik, bugun jami mehmonni.

“ RE ” notasi :

Mening nomim “re” bo‘lur,”do” kuchiga kuch qo‘shur.
Kuychangman dovyurakman, hamma bilan inoqman.
Biz yetti paxlavonmiz, sir asrorga makonmiz.
Necha- necha jumboqni, hal etgan qahramonmiz

“ MI ”notasi :

“Mi” dur mening ismim, o‘zimga tushgan jismim.
Sanoqda men uchunchi, kuylarningdir tayanchi.
Sanab hisob qiladi musiqa tirik jon.
Qadim zamondan beri, ishlaymiz tezu oson.

“ FA ” notasi :

“ Fa” notasi men o‘zim, derlar meni to‘rtbonu.
O‘zbekiston madhiyasi, boshlanur mendan doim.
Qancha bastakor bizga, atab asar yaratdi.
Shu asar dong‘imizni bor olamga taratdi.

“ SOL” notasi:

Mening nomim “sol” nota, notalar sardoriman.
Musiqa olamining, kalit debochasiman.
Sanab ilm boyitar, bu etti mashhur nota.
Musiqa bilan qiziq, manolidir bu olam.

Bolalar musiqa rahbari ko‘magida nota orqali “Gul yaxshi –lola yaxshi” kuylashni o‘rganishadi.
Bir necha marotaba kuylangandan so‘ng notalar o‘rniga so‘zlar qo‘yib, musiqa rahbari kuylab ko‘rsatadi.. Shu tariqa ushbu faoliyatda “Gul yaxshi –lola yaxshi” qo‘shig‘i kuylanadi.

Faoliyatni yakunlash: faoliyatda aktiv qatnashgan bolalarni shirin so‘zlar bilan rag‘batlantirib, faoliyatni mustaxkamlab yakunlaymiz.



veb-saytimiz: Zokirjon.com

**Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.**

Zokirjon Admin bilan

**+99891-328-88-38 nomerga telegramdan
yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab
telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**

**O'rta guruhlariga yoz davri musiqa faoliyat
ishlanmalarini to'liq holda olish uchun
telegramdan yozing.**




Narxi: 20 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.**

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.**

Internet veb-saytlarga joylamang.

**Telegram orqali kanal va gruppalariga
tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**